

AMAZONKA AYOLLARI

Hakimova Dildora Hayrullo qizi

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Namangan filiali,
kunduzgita 'lim ingliz tili fakulteti, 1-bosqich talabasi*

Tel: +998906424606

E-mail; dildhkgm006@gmail.com

AMAZON WOMENS

Hakimova Dildora Hayrullo qizi

*Kimyo International University in Tashkent, Namangan
Branch,*

Full-time English Education faculty, 1st year.

[Tel: +998906424606](tel:+998906424606)

E-mail; ; dildhkgm006@gmail.com

ЖЕНЩИНЫ-АМАЗОНКИ

Хакимова Дилдора Хайрулла кызы

*Ташкентский международный химический
университет, Наманганский филиал, очное отделение
английского факультета, студент 1 курса*

Телефон: +998906424606

Электронная почта; dildhkgm006@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amazonkalar, ya'ni jangchi ayollarining hayoti va turmush tarzi, yunon asarlaridagi tasniflari bilan tanishtirdik. Amazonkalar aslida mavjud bo'lganmi yoki bu yunon afsonalari mahsuli? degan savolga ma'lum manbalar asosida javob berishga urinib ko'rdik. Ular yashagan joylarni yunon tarixchilarining asarlari hamda hozirgi nomlari asosida tahlil qildik. Amazonka malikalari, ularning jangovar harakatlari hamda jasorati haqida yunon asarlarida ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Olimlar hozirgi zamonda amazonkalarning mavjud bo'lganligini ayrim arxeologik dalillar asosida ham isbotlamoqdalar. Matriarxat davri timsoli bo'lgan ushbu qabilaning hayoti haqida kengroq ma'lumot beramiz.

Kalit so'zlar: Sarmatlar, skiflar, Kavkaz tog'lari, Troya, Amazonlar, Amudaryo (Araz daryosi), Girkaniya, Xazar dengizi.

Abstract

In this article, we have introduced the life and lifestyle of the Amazons, that is, warrior women, and their classification in Greek works. We have tried to answer the question of whether the Amazons really existed or are they a product of Greek myths? Based on known sources, we have analyzed the places where they lived based on the

works of Greek historians and their current names. There is a lot of information about the Amazon queens, their military exploits and courage in Greek works. Scientists also prove the existence of the Amazons in modern times based on some archaeological evidence. We will provide more detailed information about the life of this tribe, which is a symbol of the era of matriarchy.

Keywords: Sarmatians, Scythians, Caucasus Mountains, Troy, Amazons, Amu Darya (Araz River), Hyrcania, Caspian Sea.

Абстрактный

В этой статье мы познакомили вас с жизнью и образом жизни амазонок, то есть женщин-воительниц, а также с их классификацией в греческих сочинениях. Существовали ли амазонки на самом деле или они всего лишь продукт греческой мифологии? Мы попытались ответить на этот вопрос, основываясь на определенных источниках. Мы проанализировали места их проживания на основе трудов греческих историков и их современных названий. Греческие труды содержат массу информации о царицах амазонок, их подвигах и мужестве. Ученые также доказывают существование амазонок в наше время, основываясь на некоторых археологических свидетельствах. Мы предоставим более подробную информацию о жизни этого племени, являющегося символом эпохи матриархата.

Ключевые слова: сарматы, скифы, Кавказские горы, Троя, амазонки, Амударья (река Араз), Гиркания, Каспийское море.

Gerodot asarlaridan ma'lumki, Amazonlar moddiy bog'liqlik inson huquqlarini cheklashini anglab yetib, bunga qarshi chiqqan birinchi ayollar bo'lgan. Tarixda ular matriarxat davrining timsoli sifatida ko'riladi.

Tarixchi A.B.Snisarenko fikriga ko'ra, Amazonlarning yashash hududlari, Turkiyaning Amasiya hududiga to'g'ri keladi. Tarixchi fikricha, Amaziya so'zining eski shakli, ya'ni Amaziya toponimi qandaydir afsonaviy qabilaning nomi bo'lishi mumkin. Amazonlar, Turkiyaning Samsun hududida ham o'z izini qoldirdi. Ma'lumotlarga ko'ra, yunonlarning homiy ma'budasi Artemida, jangchi ayol degan ma'noni beradi. Amazonkalar afsonami yoki tarixiy shaxslarmi, bu hamon bahsli. Iskandar Zulqarnayndan so'ng Amazonkalar tarixda o'z izlarini qoldirmadi. Ammo oxirgi yillarda Kavkazda, Ukrainada va boshqa joylarda kamon, o'q va nayzalar bilan dafn etilgan ayollar qabrlari topildi.

Demak, jangari ayollar bo'lgani haqidagi faraz tasdiqlanmoqda.

Qilichlar, jangovar bolta, yaqin masofaga mo'ljallangan qurol-aslahalar, qabrlar yonidagi marosim pichoqlari jangchi ayollarning oliy zotidan dalolat beradi. Ular tinch yashash hamda jangda dushmanlarni mag'lub etish uchun o'sha davrda ishlangan barcha qurollardan foydalanganlar. Sarmatlar amazonkalarning

ajdodlari hisoblanadi. Sarmat qabrlarida jangchi ayollar qurollar bilan dafn etilgan holda topilgan. Keyinchalik bunday holatlar skiflarda ham uchraydi. Miloddan avvalgi XII asrda Troya urushida ellinlar va amazonlar o'rtasidagi jangdan so'ng ellinlar ularni asirga olishib, 3 ta kemaga o'tkazishdi. Ammo Amazonkalar bu yerdagi barcha yunon jangchilarini qurolsiz qilib, kemalardan suvga uloqtirishdi. Kemani boshqara olmagan Amazonkalarni shamol va to'lqinlar Meotiya ko'li qirg'oqlariga olib keldi. Ular Kremn deb nomlangan skiflarning bo'sh yerlarini o'zlariga bo'ysundirdilar. Ular skiflarning otlarini o'g'irlab, o'lkani talay boshlashdi.

Gerodot yozadi: "Skiflar hech narsani tushunmadilar. Bu nima: ularda til yo'q, kiyim-kechak yo'q, hech bir qabilani tanishmaydi. Jangdan keyin ellinlar ularni asirga tushirishdi va 3 ta kemaga joylashtirishdi. Lekin Amazonkalar shu yerda bo'lgan barcha yunon jangchilarining qurolini olib, kemalardan suvga tashlashdi. Kemani boshqara olmagan Amazonkalarni shamol va to'lqinlar Meotiya ko'li sohillariga olib keldi. Ular Kremn deb nomlangan skiflarning bo'sh yerlarini o'zlariga bo'ysundirdilar. Ular skiflarning otlarini o'g'irlab, o'lkada talashni boshlashdi.

Gerodot yozgan: "Skiflar hech narsani tushunmadilar. Bular nima edi: ular na tilga ega, na kiyimga, na birorta qabilani tanimasdi. Men, juda g'alati, ular qayerdan paydo bo'lishgan ekan? Skiflar Amazonkalarni yosh erkaklar deb o'ylashgan, va shuning uchun ular bilan urushga kirishgan. Faqat jangdan so'ng skiflar Amazonkalarning jasadlariga qarab, ularning ayol ekanligini tushunishdi. Keyin ular Amazonkalarni o'ldirmaslikka qaror qilishdi. Ular Amazonkalarga yigitlarni yuborishni o'ylashdi. Ular bilan yaqin aloqa o'rnatish, qilgan ishlarni bilish uchun o'zlarining joylarini ularning yoniga qurdilar. Tarixchilarning ma'lumotlariga ko'ra, amazonkalar skiflar bilan aloqa qilishgan va ularga mehr qo'yishgan, lekin ichki hayotga bog'lanib qolishni istamagan, shu sababli ular o'zlarining ajdodlarining an'alarini davom ettirgan Evroosiyo dashtlarida yangi jamiyat qurishgan.

Xullas, skiflar Vikipediyaning Ozarbayjon tilidagi bo'limida "amazonka" so'zini qidirsak, birinchi bo'lib shunday jumla uchraydi – Amazonka - Ozarbayjonda yashagan jangovar ayollar qabilasi. Bu fikrga qo'shilmaslikning iloji yo'q. Chunki amazonlarning izlari Ozarbayjon chegaralaridan ancha uzoqlarda ham topilgan. Amazonlar Ozarbayjon chegaralaridan uzoqda joylashgan hududlarda bo'lishgan.

Gerodotning ma'lumotiga ko'ra, ular Turkiyani hozirgi shimolida joylashgan mustahkam Temissira shahrini poytaxt sifatida tanlaganlar. Paléfato kabi mualliflar Amazonlar haqida yozganida, ular hech qachon bo'lmagan shaxslar deb hisoblashgan, ammo bu ayollar soqollarini olishgan erkaklar edi. Bu misollardan yozma manbalar juda murakkab va aniq xulosalar chiqarish qiyin ekanini ko'rishimiz mumkin.

Hozirgi paytda bir qancha olimlar Amazonlar afsonasi haqiqiy asosga ega bo'lishi mumkin, deb fikr bildirishmoqda. Qozog'iston va Rossiya chegarasi yaqinida nekropol topildi, u yerda qurollari bilan dafn etilgan ayollarning suyaklari topilgan.

Jangda halok bo'lgan ayol tanasida singan o'q uchini topish juda ajablanarli. Asarlarda yunon qahramoni Axilles Aresning Amazon qirolichasining qizi bilan Troya urushida duel qilgani eslatib o'tilgan.

Axilles uni yengishidan oldin u Troya Shaharida qamoqda nayza bilan ko'kragiga sanchib o'ldirishadi. Axilles uning o'limini ko'rib go'zalligiga mahliyo bo'ladi va uni Skamander daryosi bo'yiga dafn etishadi.

Turli qabristonlardan topilgan skif ayollarining uchdan biridan ko'prog'i qurollari bilan dafn qilingan va ko'plari erkaklar kabi jang paytidagi jarohatlar olgan. Bu shuni ko'rsatadi: ular erkaklar bilan bir safda jang qila olar edilar va bu xususiyatlarda Amazonlar rivoyatining ildizini topish mumkin.

Jangchi ayollarning haqiqiy vatani - amazonkalarni izlagan tarixchilar hali ham bir fikrga kelisha olishmagan. Chunki qadimgi jamiyatlar qoldiqlarini saqlagan har bir joyda jangovar ayollarning izlari kuzatiladi.

Amazonlar haqidagi rivoyat, ehtimol Gerodot kabi ba'zi yunon tarixchilarining ajoyib jangchilar xalqiga qiziqish bildirib, haqiqatni kattaroq qilib ko'rsatish istagining mahsuli bo'lishi mumkin.

"Amazon" so'zi yunon tilidan tarjima qilinganda "ko'krakdan mahrum bo'lganlar" ma'nosini beradi. Bu Amazon ayollari tug'ilgan qiz bolalar bilan qilgan odatiga ishora qiladi, ya'ni katta bo'lganlarida kamon va nayzani yaxshiroq otishlari uchun ko'krak kesilardi. Amazonlar tasvirlangan san'at asarlarini ko'rsak, bu amaliyotning izlarini topmaymiz, chunki ular doimo ikkala ko'krak bilan, odatda usti yopiq holatda tasvirlangan. Amazonkalar xudoga emas, Artemidaga sajda qilishgan. U Zevs va Letoning qizi, Apollonning egizak singlisi hamda ov ma'budasi edi. Bundan tashqari, u ayollarning dardiga malham bo'lgan.

Amazonkalar aynan bizning yurtimizda yashaganiga ishora qiluvchi olimlar ham ko'pchilikni tashkil etadi. Taniqli arxeolog Amriddin Berdimurodov, nemis olimi E.Vardiman hamda rus olimi Tolstovning fikrlariga suyanib, qadimda O'rta Osiyoda ayollarning darajasi juda baland bo'lgani, erkaklar bilan bir qatorda jang qilgani aytiladi. Yunon tarixchilarining yozishicha, Eron shohi Kayxusravga qarshi jang qilgan massagetlar malikasi Sparetra 300 ming erkak, 200 ming ayol jangchiga boshchilik qilgan.

Bundan tashqari, yurtimizda, ayniqsa Orol bo'yi mintaqasida qurol-aslahalar bilan birga dafn etilgan ayol qabrlari ko'p topilgan. Bundan tashqari, asrlar davomida qoraqalpoq kelinlarining asosiy to'y libosi hisoblangan savkeli ko'rinishi sovut va dubulg'ani eslatadi. Etnograf olimlar bu libos namunasining aynan jangovar ashyolardan olinganini ta'kidlashadi. Ya'ni ayollarning jangdagi mavqei pasaygach, ularning temirdan yasalgan zirhlari kundalik ko'rinishga o'tgan va oddiy kiyimlar shakliga kirgan.

Aleksandr va amazonkalar orasidagi jang haqida asarlarda ko'p ma'lumotlar uchraydi. «Agar biz bu qo'shinni yenga olsak, hech qanday shon-shuhratga ega bo'lolmaymiz. Agar biz ulardan yengilsak, abadul-abad sharmandalik tamg'asidan qutulolmaymiz!». Shiddatli jang oldidan buyuk sarkarda Iskandar Maqduniyning o'z askarlariga aytgan bu so'zlari barchani hayajonga soldi. Ha, shu paytgacha qancha qudratli lashkarni yakson qilgan buyuk Iskandar armiyasi bu gal g'alati sarosima ichida qolgandi.

Amazonkalar mavzusi azaldan ko'pchilikni qiziqtirib kelgan. Bu borada qadimgi Dunyoning mutafakkirlari Gomer, Ovidiylar, Vergililar o'z fikrlarini aytib o'tishgan. Yunonistonning mashhur haykaltaroshlari ularning go'zal va navqiron haykallarini yaratishgan. Amazonkalar mavzusi hozirgi kungacha ham olimlarning yechilmagan munozara mavzularidan biri bo'lib qolmoqda.

Qadimiy bu tuzumda jamoaning hayoti, tirikchiligi, ro'zg'ori, avlodini davom ettirish uchun etakchilik ayollar qo'lida bo'lgan. Shunday qilib, amazonkalar ham ana shu davrda yashagan bo'lishi mumkin degan farazlar mavjud. Yunon mualliflarining yozishicha, amazonkalar ot chopishda, jang qilishda, kamondan o'q otishda hatto erkaklarni ham ortda qoldirishgan. Ularning o'z saltanati, jamoasi bo'lgan. Bu yerga erkaklarni kiritishmagan. Faqat bir yilda bir marta avlodni qoldirish maqsadida qo'shni qabilaning erkaklari bilan uchrashib turishgan. Agar tasodifan o'g'il bola tug'ilsa, uni otasiga yuborishgan yoki o'ldirishgan. Qiz bo'lsa, o'zlari tarbiya qilishgan. Erkaklarni o'ldirishgan yoki qul qilishgan. Qiz bolani o'zlarida qoldirishgan.

“Amazonka” so'zining kelib chiqishi turli xil bahslarga sabab bo'lgan. Ba'zi olimlar bu atama qadimgi yunon tilida "ko'kragi yo'q" degan ma'noni anglatadi deb hisoblashadi. Afsonalarda aytilishicha, ular jangda, o'q uzishda xalaqit bermasligi uchun o'ng ko'kraklarini o'smirlik paytida yoqib yuborishgan. Boshqa bir guruh olimlar bu so'z qadimgi fors tilidagi "ha mazan" - ayol jangchi degan so'zdan olingan deb hisoblashadi.

Boshqa bir guruh tadqiqotchilar "amazonkalar" hozirgi Turkiya hududidagi Amasiya viloyatida yashagan, ularning nomi ham shu hudud nomidan olingan, deb ta'kidlashadi. Ushbu mamlakatdagi Izmir, Efes kabi shaharlar bir paytlar aynan "amazonkalar" tomonidan qurilgani ham taxmin qilinadi.

Qadimgi yunon shoiri Gomer o'zining "Iliada" dostonida amazonkalar shohi Priam bilan birgalikda Troyani bosqinchilardan himoya qilganini yozadi. Aslida, amazonkalarning tarixda yashaganini ko'rsatadigan ko'plab tarixiy dalillar mavjud. Xususan, qadimgi Yunoniston hududidan topilgan ko'plab sopol buyumlarda jangchi ayollar tasviri uchraydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, amazonkalar yoki jangchi ayollar haqiqatan ham mavjud bo'lgan. Lekin yunon asarlarida ular afsonalarga aylangan va haqiqatdan uzoq afsonalar bilan tahlil qilingan. Hozirgi ilmiy izlanishlar ularni inkor etish noto'g'ri

ekanini ko'rsatmoqda. Ular bo'lgan, ayollardan tashkil topgan jangchi ayollar bo'lgan. Maqolani faktlar asosida yoritishga harakat qildik va xulosalar orqali tahlil qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. F. Boynazarov "Qadimgi dunyo tarixi" Toshkent. 2008.
2. O.,zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 1- jild. Toshkent. 2000-2006.
3. Vera Smirnova "ellada qahramonlari" Toshkent. "Yosh gvardiya". 1976.
4. Wikipedia.